

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2019-yil yanvar-noyabr*)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o`shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo`yicha qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko`proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo`ladi.

Ushbu yo`nalishda amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi hajmi 38 269,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 9 588,0 mln. AQSh dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 33,4 % ga oshgan. Ushbu ko`rsatkichdan eksport hajmi 16 255,1 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati – 43,3 %) va import hajmi esa 22 014,8 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati – 27,0 %) yetdi. Hisobot davrida 5 759,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo aylanmasi qayd etildi.

O`zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi %)



* dastlabki ma`lumot

O`zbekiston jahonning 190 ga yaqin mamlakat bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Respublika tashqi savdo aylanmasining dunyo davlatlari qatoriga nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (19,2 %), Rossiya Federatsiyasida (15,2 %), Qozog`istonda (8,4 %), Koreya Respublikasida (6,6 %), Turkiyada (5,9 %), Germaniyada (2,4 %) va Qirg`izistonda (2,0 %) qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori bo'lgan davlatlar

(yanvar-noyabr 2019 y., mln. AQSh dollari, ulushi %)


Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, %
Xitoy Xalq Respublikasi	7 335,4	2 740,0	4 595,4	19,2
Rossiya Federatsiyasi	5 809,2	2 128,3	3 680,8	15,2
Qozog`iston	3 197,6	1 423,8	1 773,8	8,4
Koreya Respublikasi	2 532,1	88,2	2 443,9	6,6
Turkiya	2 258,7	1 076,8	1 181,9	5,9
Germaniya	902,3	47,6	854,8	2,4
Qirg`iziston	761,4	627,7	133,7	2,0
AQSh	580,8	26,9	553,9	1,5
Afg`oniston	554,9	552,8	2,2	1,5
Turkmaniston	457,8	83,7	374,1	1,2

2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko`ra MDH mamlakatlari bilan savdo hajmi 13 085,2 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va O`zbekistonning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 34,2 % ga yetdi.

Qo`shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi o`zaro savdo-sotiq aloqalariga ham ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda. MDH mamlakatlari bilan tashqi savdoning qariyb 34,2 %, shundan eksportning 34,8 % va importning 33,7 % qo`shni mamlakatlar hissasiga to`g`ri keladi.

O`zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi %)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 65,8 % ga yetib (25 184,7 mln. AQSh dollari) o`tgan yilning mos davridagi tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 142,0 % ga oshgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg`oniston (550,6 mln. AQSh dollari), Qirg`iziston (494,0 mln. AQSh dollari), Tojikiston (150,5 mln. AQSh dollari), Fransiya (53,5 mln. AQSh dollari) va Eron (9,1 mln. AQSh dollari). Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

O`zbekiston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Xitoy Xalq Respublikasi	4 295,1	5 691,9	7 335,4
Eksport	1 824,0	2 518,5	2 740,0
Import	2 471,1	3 173,4	4 595,4
Saldo	-647,2	-655,0	-1 855,5
Rossiya Federatsiyasi	4 340,8	5 092,7	5 809,2
Eksport	1 879,0	1 892,1	2 128,3
Import	2 461,8	3 200,5	3 680,8
Saldo	-582,9	-1 308,4	-1 552,5
Qozog`iston	1 883,1	2 609,8	3 197,6
Eksport	969,9	1 251,8	1 423,8
Import	913,3	1 358,0	1 773,8
Saldo	56,6	-106,2	-350,0
Koreya Respublikasi	1 231,1	1 782,5	2 532,1
Eksport	98,2	83,7	88,2
Import	1 132,9	1 698,8	2 443,9
Saldo	-1 034,7	-1 615,2	-2 355,8
Turkiya	1 385,1	1 928,2	2 258,7
Eksport	785,3	808,8	1 076,8
Import	599,8	1 119,5	1 181,9
Saldo	185,4	-310,7	-105,2
Germaniya	565,2	710,4	902,3
Eksport	23,9	42,4	47,6
Import	541,2	668,1	854,8
Saldo	-517,3	-625,7	-807,2

Davlat nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Qirg`iziston	234,9	362,7	761,4
Eksport	164,9	241,0	627,7
Import	70,1	121,7	133,7
Saldo	94,8	119,3	494,0
AQSh	193,8	355,1	580,8
Eksport	21,8	28,1	26,9
Import	172,0	327,0	553,9
Saldo	-150,1	-298,9	-527,1
Afg`oniston	544,0	559,5	554,9
Eksport	541,9	557,6	552,8
Import	2,1	2,0	2,2
Saldo	539,8	555,6	550,6
Turkmaniston	159,2	243,9	457,8
Eksport	65,3	43,8	83,7
Import	93,9	200,0	374,1
Saldo	-28,6	-156,2	-290,4
Tojikiston	216,7	350,8	446,9
Eksport	166,1	207,5	298,7
Import	50,6	143,3	148,2
Saldo	115,5	64,2	150,5
Litva	236,3	258,2	423,1
Eksport	5,6	9,7	20,9
Import	230,7	248,4	402,2
Saldo	-225,1	-238,7	-381,3
Yaponiya	145,7	525,2	386,9
Eksport	11,3	12,4	26,1
Import	134,3	512,8	360,8
Saldo	-123,0	-500,5	-334,7


Davlat nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Eron	299,5	272,5	381,0
Eksport	247,7	153,4	195,1
Import	51,8	119,0	185,9
Saldo	195,9	34,4	9,1
Italiya	155,0	268,6	369,4
Eksport	16,5	22,2	25,2
Import	138,5	246,4	344,1
Saldo	-122,0	-224,2	-318,9
Ukraina	249,6	390,8	348,8
Eksport	91,4	91,2	110,0
Import	158,2	299,6	238,8
Saldo	-66,8	-208,5	-128,9
Latviya	259,6	391,8	347,6
Eksport	72,0	37,4	43,0
Import	187,6	354,4	304,6
Saldo	-115,6	-317,1	-261,6
Hindiston	308,5	255,8	329,6
Eksport	30,1	21,2	22,0
Import	278,4	234,7	307,5
Saldo	-248,3	-213,5	-285,5
Fransiya	233,0	276,9	315,4
Eksport	132,7	173,4	184,4
Import	100,3	103,5	131,0
Saldo	32,4	69,9	53,5
Belarus	155,2	380,5	304,9
Eksport	24,1	35,5	42,5
Import	131,2	345,0	262,4
Saldo	-107,1	-309,5	-219,9

EKSPORT

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o`shishiga ko`maklashadi va bu o`z navbatida ma`lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan korxonalar soni o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1 138 taga ko`payib, ularning umumiy soni 5 621 tani tashkil etdi.

Tovarlar va xizmatlar eksporti tarkibi

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 16 255,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 43,3%ga teng). Eksport tarkibida tovarlar 80,8% ulushga ega bo'lib, bular asosan energiya manbalari va neft mahsulotlari (16,7%), to'qimachilik va to'qimachilik buyumlari (9,0%), oziq-ovqat mahsulotlari (8,7%), rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (5,3%) hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari (4,9%) hissasiga tog'ri kelmoqda.

MDH va boshqa xorijiy davlatlar bo'yicha eksport tarkibi

(2019-yil yanvar-noyabr)

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Jami eksport	16255,1	143,3	100,0	5663,5	124,6	100,0	10591,6	155,7	100,0
Paxta tolasi	260,8	122,7	1,6	1,1	35,8	0,0	259,7	124,0	2,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	1412,2	138,5	8,7	913,7	133,6	16,1	498,5	148,3	4,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	801,6	97,0	4,9	372,7	108,8	6,6	429,0	88,6	4,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	2709,9	113,5	16,7	1261,2	117,4	22,3	1448,7	110,3	13,7
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	270,3	132,3	1,7	86,6	2,1 b.	1,5	183,7	112,9	1,7
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	864,6	120,4	5,3	144,8	147,3	2,6	719,8	116,1	6,8
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	377,0	2,1 b.	2,3	273,0	2,1 b.	4,8	104,0	2,1 b.	1,0
To'qimachilik mahsulotlari	1468,0	124,6	9,0	742,8	114,7	13,1	725,2	136,7	6,8
Oltin	4431,1	2,8 b.	27,3	-	-	-	4431,1	2,8 b.	41,8
Xizmatlar	3120,0	112,4	19,2	1586,0	114,4	28,0	1534,0	110,4	14,5
Boshqalar	539,4	187,9	3,3	281,6	2,0 b.	5,0	257,8	173,4	2,4

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o`tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, o`tgan yilning mos davriga nisbatan, kimyo mahsulotlari va buyumlaridan tashqari tovar va xizmatlar tarkibi turlarini eksport qilish hajmlarining o`sishi kuzatildi.

Eksport tarkibi dinamikasi

(yanvar-noyabr, %)

Tarkibi	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Paxta tolasi	3,6	1,9	1,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	6,8	9,0	8,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	6,8	7,3	4,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	12,9	21,0	16,7
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	1,2	1,8	1,7
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	5,8	6,3	5,3
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	2,7	1,6	2,3
To`qimachilik mahsulotlari	8,7	10,4	9,0
Oltin	27,9	13,7	27,3
Xizmatlar	19,0	24,5	19,2
Boshqalar	4,5	2,5	3,3

So`nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida diversifikatsiya kuzatildi. Jumladan, energiya manbalari va neft mahsulotlari ulushi 3,8 foiz punktga oshib, 16,7 %ni, oziq-ovqat mahsulotlari – 1,9 %, qora metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar - 0,5 %, to`qimachilik mahsulotlari – 0,3% va xizmatlar 0,2 % punktga oshdi. Eksport tarkibi boshqa turlari ulushining pasayishi eksport tarkibida oltinning ulushi yuqoriligi hamda energiya manbalari va neft mahsulotlari ulushining sezilarli darajada o`sishi bilan izohlanadi.

Eksport qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

(2019-y. yanvar-noyabr)


Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	O`tgan yilga nisbatan, %	Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	O`tgan yilga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari					
meva va rezavorlar	622,7	116,9	alkogolli va alkogolsiz ichimliklar	11,4	105,3
sabzavotlar	514,2	176,0	qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari	44,5	163,5
bug`doy	19,7	96,1			
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar					
plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar	368,0	87,8	karbonat	12,8	96,6
o`g`itlar	128,6	102,4	kimyoviy shtapelli tola	17,7	2,3 b.
farmatsevtika mahsuloti	8,4	78,2	ammiak	1,8	129,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari					
tabiiy gaz	2242,4	116,6	motor moylari	4,7	42,3
elektroenergiya	72,4	52,4	tarkibida oltingugurt bo`lgan yoqilg`ilar	3,8	60,3
qayta ishlangan boshqa neft mahsulotlari	39,5	126,2			
Qora va rangli metallar					
mis va mis buyumlari	576,2	134,8	rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (misdan tashqari)	207,5	111,8
temir burchaklar, prutkalar va maxsus profillar	214,2	135,9	qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar	0,8	61,5
Mashina va asbob-uskunalar					
simlar va kabellar	36,4	2,2 b.	yengil avtomobil	93,1	3,3 b.
transformatorlar va akkumlyatorlar	29,4	2,7 b.	avtobuslar va mikroavtobuslar	9,0	173,1
elektr zanjirlarni almashtirish yoki himoya qilish jihozlari	17,4	2,0 b.	yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	9,9	167,8
avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va jihozlar	4,4	141,9	tirkama va yarim tirkamalar	5,5	4,6 b.
monitorlar va proyektorlar	10,9	128,2			
Boshqalar					
to`qimachilik mahsulotlari	1315,5	123,2	oyoq kiyim, getra va ularning qismlari	24,1	2,3 b.
charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan tayyorlangan buyumlar	44,7	66,8	shisha va shisha buyumlar	7,2	85,7
qog`oz, karton va matbaa buyumlari	13,5	90,6	sopol buyumlar	13,7	117,1

Eksportning eng katta ulushi tabiiy gaz (umumiy tovarlar eksporti hajmidagi ulushi 18,8 %), to`qimachilik mahsulotlari (11,2 %), mis va mis buyumlari (4,9 %), meva va rezavorlar (3,8 %) hissasiga to`g`ri keladi.

So`nggi uch yil ichida MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi, ularning umumiy eksport hajmidagi ulushi 2017-yildagi 32,1 %dan 2019-yilda 34,8 %gacha ortdi. Mos ravishda, boshqa xorijiy mamlakatlarning umumiy eksportdagi ulushi 65,2 %ni tashkil etdi.

MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi %)



O`tgan yil bilan taqqoslaganda, tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 16,9 %), Rossiya Federatsiyasi (13,1 %), Qozog`iston (8,8 %), Turkiya (6,6 %), Qirg`iziston (3,9 %), Afg`oniston (3,4 %) va Tojikiston (1,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 50 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan biri bo`lgan Tojikiston eksport ulushi bo`yicha Eronning o`rniga qayta tiklandi. Shu bilan birga, Qirg`iziston yildan yilga Afg`oniston va Eronni ortda qoldirib, o`z mavqeini mustahkamlamoqda.

Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar-noyabr)



Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha geografiyasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan 159 davlatdan 177 davlatgacha o`sdi.

O`zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlariga amalga oshirilgan eksport hajmi va o`shish sur`atlari

(yanvar-noyabr)

Davlat nomi	Mln. AQSh dollari		O`shish sur`ati, %		O`rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Xitoy Xalq Respublikasi	2 518,5	2 740,0	138,1	108,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	1 892,1	2 128,3	100,7	112,5	2	2
Qozog`iston	1 251,8	1 423,8	129,1	113,7	3	3
Turkiya	808,8	1 076,8	103,0	133,1	4	4
Qirg`iziston	241,0	627,7	146,2	2,6 b.	6	5
Afg`oniston	557,6	552,8	102,9	99,1	5	6
Tojikiston	207,5	298,7	124,9	144,0	7	7
Eron	153,4	195,1	61,9	127,2	9	8
Fransiya	173,4	184,4	130,7	106,4	8	9
Birlashgan Arab Amirliklari	52,2	126,8	137,3	2,4 b.	12	10
Ukraina	91,2	110,0	99,8	120,6	10	11
Koreya Respublikasi	83,7	88,2	85,2	105,4	11	12
Pokiston	28,7	83,9	3,6 b.	2,9 b.	23	13
Turkmaniston	43,8	83,7	67,1	190,9	15	14
Buyuk Britaniya	55,9	69,6	149,0	124,5	12	15
Germaniya	42,4	47,6	177,2	112,3	16	16
Ozarbayjon	28,9	46,5	122,9	161,0	22	17
Latviya	37,4	43,0	51,9	115,1	18	18
Belarus	35,5	42,5	147,4	119,9	20	19
Polsha	34,5	38,1	106,2	110,2	21	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan energiya manbalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.

Respublikaning ayrim davlatlar bilan eksport tarkibi


(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

	Xitoy		Rossiya		Qozog`iston		Turkiya	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Jami eksport	2 518,5	2 740,0	1 892,1	2 128,3	1 251,8	1 423,8	808,8	1 076,8
paxta tolasi	70,6	141,4	2,8	0,6	-	-	9,2	9,9
oziq-ovqat mahsulotlari	58,7	66,4	173,3	186,3	391,7	286,8	24,7	99,0
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	127,2	122,6	154,5	162,3	92,9	108,0	98,0	52,0
energiya manbalari va neft mahsulotlari	1 134,5	1 265,6	517,9	671,9	502,6	539,0	2,4	13,8
qora metallar	3,3	0,3	2,9	2,7	21,7	59,9	6,0	5,1
rangli metallar	119,0	70,0	50,2	59,3	14,5	44,2	468,2	611,2
mashina va asbob-uskunalar	4,0	2,9	50,4	70,3	39,9	129,6	28,3	58,4
to`qimachilik mahsulotlari	294,7	395,3	497,2	540,5	36,9	36,9	110,4	173,2
xizmatlar	643,1	633,7	409,6	394,0	94,2	120,2	56,7	50,2
boshqalar	63,4	41,7	33,3	40,4	57,6	99,3	4,8	3,8

Xizmatlar eksporti hajmi 3 120,0 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 19,2 %ini tashkil etib, o`ngan yilning shu davriga nisbatan 12,4 %ga o`sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport va turizm xizmatlari hissasiga to`g`ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi

(yanvar-noyabr, ulushi %)



Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida jami 1 294,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 1136,9 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o`shish sur`ati mos ravishda - 112,6 % va 137,9 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 514,2 mln. AQSh dollariga teng 744,8 ming tonnadan ortiq sabzavot, shuningdek 622,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 549,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymat ko`rinishidagi o`shish sur`ati o`ngan yilning shu davriga nisbatan mos ravishda 176,0 % va 116,9 % ni tashkil etdi).

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(yanvar-noyabr, 2019 y.)



Hukumatimiz tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida umumiy eksportdagi meva va sabzavotlarning ulushi 7,0 % ni tashkil etdi.

Respublikada yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

(yanvar-noyabr)

Davlat nomi	2018-yil			2019-yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, %	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, %
Qirg`iziston	84,7	75,1	9,1	118,3	312,5	27,5
Qozog`iston	564,1	375,6	45,5	520,7	269,9	23,7
Rossiya Federatsiyasi	225,6	156,6	19,0	233,1	151,1	13,3
Turkiya	20,9	23,1	2,8	62,8	97,0	8,5
Pokiston	24,9	19,0	2,3	54,6	69,1	6,1
Afg`oniston	67,6	49,3	6,0	38,3	53,1	4,7

Davlat nomi	2018-yil			2019-yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, %	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, %
Xitoy Xalq Respublikasi	53,4	37,5	4,5	46,9	41,7	3,7
Ukraina	11,9	7,8	0,9	54,3	35,8	3,1
Tojikiston	5,2	3,1	0,4	19,5	12,2	1,1
Eron	11,3	8,8	1,1	15,3	11,8	1,0
Iroq	4,9	5,2	0,6	17,8	11,1	1,0
Belarus	7,3	6,8	0,8	13,3	9,4	0,8
BAA	8,6	6,8	0,8	7,4	8,1	0,7
Turkmaniston	7,0	4,0	0,5	22,3	7,3	0,6
Ozarbayjon	3,6	3,8	0,5	5,7	6,3	0,6
Germaniya	2,5	5,2	0,6	2,7	5,8	0,5
Boshqa mamlakatlar	46,2	37,1	4,5	61,0	34,8	3,1

*- qiymat ifodasidan

To`qimachilik mahsulotlari eksporti

2019-yilning o`tgan davri mobaynida 1 468,0 mln. AQSh dollari miqdorida to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 24,6 % ga o`sib, umumiy eksport hajmining 9,0 % ini tashkil qildi. Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (57,0 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (21,9 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 420 turga yaqin to`qimachilik mahsulotlari dunyoning 56 ta davlatiga eksport qilindi.

To`qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

	2017 y.	2018 y.	2019 y.
Paxtadan yigirilgan ip	566,6	667,9	837,4
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	247,6	263,3	321,9
Naqshli mato	46,4	61,0	79,1
Paxtadan gazlamalar	49,6	58,8	63,1
Ipak va ipak mahsulotlari	23,1	33,8	57,8
Boshqa to`qimachilik mahsulotlari	28,8	32,3	46,8
Gilamlar	30,7	28,6	28,8
Paxta mahsulotlari	22,8	24,5	25,3

Respublikaning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To`qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (540,5 mln. AQSh dollari – 36,8 %), Xitoy (395,3 mln. AQSh dollari – 26,9 %) va Turkiya (173,2 mln. AQSh dollari – 11,8 %) davlatlariga tegishli.

Davlatlar kesimida to`qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)


Davlatlar	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Rossiya Federatsiyasi	469,7	497,2	540,5
Xitoy Xalq Respublikasi	191,3	294,7	395,3
Turkiya	97,5	110,4	173,2
Qirg`iziston	49,0	63,3	88,4
Eron	20,9	19,6	47,9
Qozog`iston	42,8	36,9	36,9
Ukraina	11,9	17,2	26,2
Polsha	19,2	20,3	23,3
Belarus	15,9	20,6	22,2
Tojikiston	4,9	2,9	11,7
Misr	0,8	2,9	11,2
Bangladesh	18,3	18,1	11,2
Italiya	3,6	6,7	10,4
Ozarbayjon	3,3	5,3	9,8
Pokiston	0,6	5,3	7,9
Germaniya	2,5	3,8	6,9
Koreya Respublikasi	24,6	7,5	6,4
Moldova	2,8	2,6	5,4
Vyetnam	7,3	4,3	4,7
Afg`oniston	6,3	6,0	4,1

IMPORT

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 22 014,8 mln. AQSh dollariga (o`sinh sur`ati 27,0 %) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar hamda ularning qismlari (44,1 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (13,0 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (7,6 %) hisobiga to`g`ri keldi.

Tovarlar va xizmatlar importi tarkibi

(yanvar-noyabr, mln AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4 507,7 mln. AQSh dollariga ko`p import qilindi va 19 812,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 2 201,9 mln. AQSh dollarga yetgan.

MDH va boshqa xorijiy davlatlardan import tarkibi

(2019 yil yanvar-noyabr)

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Jami import	22014,8	127,0	100,0	7421,7	115,8	100,0	14593,1	133,5	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	1671,9	118,4	7,6	1100,1	107,4	14,8	571,8	147,5	3,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	2863,1	126,3	13,0	600,4	138,2	8,1	2262,7	123,5	15,5
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	807,0	102,8	3,7	763,9	101,6	10,3	43,1	129,3	0,3
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	1675,9	115,3	7,6	1077,7	110,2	14,5	598,2	125,9	4,1
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	255,0	142,7	1,2	157,2	118,9	2,1	97,8	2,1 b.	0,7
Mashina va asbob-uskunalar	9702,5	132,9	44,1	1173,0	116,1	15,8	8529,5	135,6	58,4
Xizmatlar	2201,9	108,5	10,0	970,9	108,0	13,1	1231,1	108,8	8,4
Boshqalar	2837,6	148,6	12,9	1578,6	134,0	21,3	1259,0	172,2	8,6

Importning eng katta ulushi, jumladan, energiya manbalari va neft mahsulotlari (94,7 %), rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (61,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (65,8 %), shuningdek qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar (64,3 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (87,9 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar (79,0 %) hissasiga to`g`ri keladi.

Import tarkibi dinamikasi

(yanvar-noyabr, %)

Tarkibi	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	9,3	8,1	7,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	15,8	13,1	13,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	5,2	4,5	3,7
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	8,4	8,4	7,6
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	1,0	1,0	1,2
Mashina va asbob-uskunalar	35,8	42,1	44,1
Xizmatlar	13,4	11,7	10,0
Boshqalar	11,0	11,0	12,9

2019-yil yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, o`tgan yilning mos davriga nisbatan mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari importining ulushi 35,8 % dan 44,1 % gacha o`tdi, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi esa 9,3 % dan 7,6 % ga kamaydi.

Import qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi


(2019-yil yanvar-noyabr)

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	O`tgan yilga nisbatan, %	Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	O`tgan yilga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari					
shakar xomashyosi	175,9	9,3 b.	kakao va undan tayyorlangan mahsulotlar	51,5	165,5
bug`doy	326,8	137,4	qandolat mahsulotlari	66,9	160,6
un	75,5	76,7	pista moyi	156,9	147,5
tayyor hayvon yemi	122,6	106,9	margarin	31,7	125,7
choy	42,7	94,4	sitrus mevalar	37,2	189,1
kartoshka	22,7	56,1	go`sht va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	33,8	2,1 b.
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar					
farmatsevtika mahsulotlari	839,7	108,4	o`simliklarni o`stirish regulyatorlari	67,8	150,5
plastmassa va plastmassa buyumlar	736,7	144,2	kimyoviy iplar	62,2	108,0
kauchuk va rezina mahsulotlari	219,8	124,3	kimyoviy shtapelli tola	53,9	100,9
organik kimyo birikmalari mahsuloti	145,0	114,4	aralashmalar va erituvchilar	71,3	155,9
parfyumeriya-kosmetika va yuvish vositalari	194,6	148,0	kaustik soda	29,2	97,3
bo`yoq ekstraktlari	142,5	119,5	kimyoviy va mineral o`g`itlar	57,5	4,2 b.
Energiya manbalari va neft mahsulotlari					
neftni qayta ishlash mahsulotlari	536,9	119,4	aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko`mir	17,7	88,9
neft xomashyosi	92,4	40,0	elektroenergiya	58,4	127,4
Qora va rangli metallar					
qora metall va undan tayyorlangan buyumlar	1675,9	115,3	rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar	255,0	142,7
Mashina va asbob-uskunalar					
avtomobil uchun ehtiyot qismlar va buyumlar	758,7	95,2	ekskavatorlar va buldozerlar	345,7	129,8

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	O`tgan yilga nisbatan, %	Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	O`tgan yilga nisbatan, %
to`qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari	421,7	84,1	kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrafugalar	401,1	131,0
yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	394,8	104,5	yengil avtomobillar	370,6	152,6
konditsionerlar, sovutgichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar	641,0	161,5	shinalar va pokrishkalar	185,6	105,5
qishloq xo`jaligi mashinalari va boshqa uskunalari	251,9	92,8	tibbiy asbob-uskunalar	264,7	160,3
tuproqni maydalovchi uskunalar	482,2	168,4	elektron dvigatellar, generatorlar va transformatorlar	331,1	83,2
vakum va suyuqlik nasoslari	492,2	1,9 b.	neft-gaz quvurlari uchun truba va trubkalar	199,6	101,5
uchuvchi apparatlar	398,3	2,1 b.	oziq ovqatsanoati uchun uskunalar	62,8	55,7
Boshqalar					
yog`och va yog`och buyumlar	559,1	99,3	boshqa tirik o`simliklar	25,3	71,3
qog`oz, karton va chop etilgan buyumlar	243,4	123,1	asbest	29,5	71,7
sement	146,5	91,4	qimmatbaho bo`lmagan metallardan ishlangan oshxona asbob-anjomlari	40,3	129,7
rangli metall konsentartlari va rudalari	344,5	3,6 b.	o`rindiqliq mebellar	45,6	171,3
tosh, gips va keramik buyumlar	164,2	2,0 b.	o`yinchoqlar, o`yinlar va sport anjomlari	30,9	130,8
qurilish majmualari konstruksiyasi	392,9	2,5 b.	yirik shoxli mollar	112,7	2,4 b.
shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar	76,1	117,7	tirik uy parrandalari	8,8	110,1

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi barqaror nisbati saqlanib qolmoqda va joriy davrda ushbu ko`rsatkich 33,7:66,3 ni tashkil etdi

MDH va boshqa xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi



Hisobot davri natijalariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasini 16,7 % ulushi bilan ortda qoldirgan holda Xitoy umumiy import hajmida 20,9 % ulushi bilan birinchi o`rinni egalladi.

O`zbekiston Respublikasi tomonidan importning jadal o`shishi tufayli Singapur (o`shish sur`ati o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 b.) 19 - o`ringa va Chexiya Respublikasi (o`shish sur`ati o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 b.) 18 - o`ringa ko`tarilib yirik import hamkor-davlatlar yigirmataligiga kirdi.

Aksincha, Shveytsariya esa (import qilingan hajm o`tgan yilning shu davriga nisbatan 10,6 %ga kamaygan bo`lsa ham (89,4 %) 20-o`rin bilan yirik import hamkor davlatlar yigirmataligida saqlanib qoldi.

Tovarlar va xizmatlar importidagi yigirmata yirik hamkor-davlatlar

(yanvar-noyabr)

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		o`shish sur`ati, %		o`rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Xitoy Xalq Respublikasi	3 173,4	4 595,4	128,4	144,8	2	1
Rossiya Federatsiyasi	3 200,5	3 680,8	130,0	115,0	1	2
Koreya Respublikasi	1 698,8	2 443,9	150,0	143,9	3	3
Qozog`iston	1 358,0	1 773,8	148,7	130,6	4	4
Turkiya	1 119,5	1 181,9	186,6	105,6	5	5
Germaniya	668,1	854,8	123,4	127,9	6	6
AQSh	327,0	553,9	190,2	169,4	10	7
Litva	248,4	402,2	107,7	161,9	12	8
Turkmaniston	200,0	374,1	2,1 b.	187,0	15	9
Yaponiya	512,8	360,8	3,8 b.	70,4	7	10
Italiya	246,4	344,1	177,9	139,6	13	11
Hindiston	234,7	307,5	84,3	131,1	14	12
Latviya	354,4	304,6	188,9	85,9	8	13
Belarus	345,0	262,4	2,6 b.	76,1	9	14
Ukraina	299,6	238,8	189,4	79,7	11	15
Eron	119,0	185,9	2,3 b.	156,2	20	16
Tojikiston	143,3	148,2	2,8 b.	103,4	17	17
Chexiya Respublikasi	58,7	144,8	79,0	2,5 b.	28	18
Singapur	18,8	143,5	2,2 b.	7,6 b.	42	19
Shveysariya	151,0	135,0	109,0	89,4	16	20

2019-yilning yanvar-noyabr oyida respublikaga 156ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi


(yanvar-noyabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo`lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog`iston, Turkiya, Germaniya va AQSh hamkor davlatlaridan jami import hajmi 15 084,6 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 68,6 % ini tashkil qiladi.

Xizmatlar importi tarkibi

(yanvar-noyabr, ulushi %)



Xizmatlar importi hajmi 2 201,9 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 10,0 % ini tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,5 % ga oshgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm xizmatlari), transport xizmatlaridan iborat bo`ldi.

Qurilish materiallari importi

2019-yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida 1 216,0 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 11,9 % ga o`sib, umumiy import hajmining 5,5 % ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog`och va yog`och mahsulotlari (45,6 %), sement (12,1 %), shisha va shisha buyumlar (5,1 %) hamda asbest (2,4 %) asosiy ulushni egallagan.

Qurilish materiallari importi

(yanvar-noyabr, 2019 y.)

Qurilish materiallari importi

import hajmi 1216,0 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 5,5 %



Yog`och va yog`och mahsulotlari

import hajmi 555,0 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 45,6 %



Sement

import hajmi 146,5 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 12,1 %



Shisha va shisha mahsulotlari

import hajmi 62,6 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 5,1 %



Asbest

import hajmi 29,5 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 2,4 %



Infografikadan ko`rinib turibdiki, 2019-yilning yanvar-noyabr oyida qurilish materiallari import hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`shishiga yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda.

Qurilish materiallari importi dinamikasi

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Sement	20,6	160,3	146,5
Yog`och va yog`och mahsulotlari	422,1	560,2	555,0
Asbest	27,2	41,2	29,5
Shisha va shisha buyumlar	41,0	53,5	62,6

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganini quyidagi jadvallardan ko`rish mumkin.

Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(yanvar-noyabr 2019 y.)



Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(yanvar-noyabr 2019 y.)



Shu bilan, yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi**

Tel.: 71-230-80-42

71-230-80-43